

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.A.Abduhamidova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov</b>	
Yerqalampir o'simligi bargalri efir moyining kimyoviy tarkibini o'rganish .....	5
<b>P.K.Turdalieva, S.M.Qosimova</b>	
Farg'ona xududida o'sadigan <i>Taraxacum officinale</i> Wigg. s.L. o'simligi tarkibida fenol birikmalari va bioelementlar miqdorini o'rganish.....	9
<b>V.M.Nosirova V.U.Xo'jayev</b>	
Asperugo procumbens o'simligi yer ustki qismining kul miqdori hamda makro va mikroelementlari tahlili .....	15
<b>D.Sh.Shavkatova</b>	
Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga qarshi kuchi .....	19
<b>D.G'.Urmonov, A.K.Salman, I.J.Jalolov A.A.Ibragimov</b>	
<i>Limonium otolepis</i> yer ustki qismi geksan fraksiyasi gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili .....	29
<b>M.Y.Ismoilov, M.Sh.Ermatova</b>	
FNQIZ ishqoriy chiqindilar tarkibini tahlil qilish .....	33
<b>G.K.Najmitdinova, D.A.Shodiyev, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Mahalliy amarant navlaridagi biologik faol bo'yovchi moddalar miqdorini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari.....	44
<b>M.R.Murtozaqulov, Y.S.Fayzullayev, S.X.Botirov, D.J.Bekchanov, M.G.Muhamediyev</b>	
Tabiiy gazlarning nordon gazlardan tozalashda ishlatalgan metildietanolamin tarkibidagi termik barqaror tuzlarni ajratib olish .....	49
<b>M.I.Karabayeva, D.S.Salixanova, S.R.Mirsalimova</b>	
Temir asosida metall-organik adsorbentlar olishning samarali usullari .....	55
<b>N.N.Dexkanova, G.V.Tollibaeva</b>	
Uglerod oksisulfid molekulalarining nax seolitiga adsorbsiyasini mikrokalorimetrik.....	60
<b>D.A.Shodiyev, G.K.Najmitdinova, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Yangi amarant navlaridagi biologik faol moddalar va kimyoviy elementlarni o'rganish va maxsus oziq-ovqat qo'shimchasini yaratish istiqbollari .....	66
<b>I.R.Askarov, O.Sh.Abdulloev M.M.Kholmatova</b>	
Chemical composition and medicinal properties of fish and fish bones .....	72
<b>A.P.Xujakulov, I.R.Asqarov, A.X.Islomov</b>	
Yashil no'xat urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	76
<b>H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov</b>	
Phlomoides nuda o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari .....	80
<b>Z.Q.Axmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov</b>	
Study of antioxidant activity of a mixture prepared from <i>Tribulus macropterus</i> , <i>Taraxacum officinale</i> and <i>inula helenium</i> .....	85

## BIOLOGIYA

<b>B.M.Sheraliyev, S.Y.G'ułomov, I.I.Zokirov</b>	
Kumushrang tobonbaliq <i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782) dagi bosh deformatsiyasining birinchi qaydi.....	89
<b>M.A.Axmadjonova, G.M.Zokirova</b>	
Fabaceae oilasi vakillarida tarqalgan <i>Sitona cylindricollis</i> (Fahraeus, 1840) ning morphologiyasi va bioekologiyasi.....	96
<b>M.M.Teshajonova, G.M.Zokirova</b>	
Tibbiyat oliygohi talabalariga gistologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari .....	101
<b>I.A.Abdurazakova, A.E.Zaynabiddinov</b>	
Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchangini O'zbekiston sharoitida har xil ozuqada parvarish qilish .....	112
<b>K.P.Buriyeva, G.S.Mirzaeva, N.Z.Arabova</b>	
Taxonomy and Morphology of species of the genus <i>Hippodamia</i> (Chevrolat in Dejean, 1837), common in the Kashkadarya region .....	120



УО'К: 543.544.3

**LIMONIUM OTOLEPIS YER USTKI QISMI GEKSAN FRAKSIYASI GAZ  
XROMATOGRAFIK-MASS SPEKTROMETRIK TAHLLILI**

**ГАЗОХРОМАТОГРАФИЧЕСКИЙ-МАСС-СПЕКТРОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ  
ГЕКСАНОВОЙ ФРАКЦИИ НАДЗЕМНОЙ ЧАСТИ LIMONIUM OTOLEPIS**

**GAS CHROMATOGRAPHY-MASS SPECTROMETRY ANALYSIS OF THE HEXANE  
FRACTION OF THE AERIAL PARTS OF LIMONIUM OTOLEPIS**

Urmonov Dadahon G'olibjon o'g'li<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti Kimyo kafedrasi tayanch doktoranti

Salman Ahmad Khan<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti

Jalolov Iqboljon Jamolovich<sup>3</sup> 

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, kimyo fanlari doktori, dotsent

Ibragimov Alidjan Aminovich<sup>4</sup> 

<sup>4</sup>Farg'ona davlat universiteti, kimyo fanlari doktori, professor

#### *Annotatsiya*

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi cho'l hududlarida tarqalgan galofit o'simlik Limonium otolensis ning yer ustki qismi geksanli fraksiyasini gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga ko'ra, geksanli fraksiyada jami 74 ta birikmalar borligi va ulardan 9 ta birikma, umumiy fraksiyaning 92.51 foizini tashkil qilishi aniqlandi. Ular orasidan karbonat kislota eykozil vinil efiri, n-pentakozan, n-dokozan, n-nonadekan va n-heneicosanlarni miqdori eng ko'r bo'lib, mos ravishda 43.923 %, 25.151 %, 12.34 %, 4.94 %, 3.456 % ni tashkil qildi.

#### *Аннотация*

В данной статье представлены результаты газохроматографического-масс-спектрометрического анализа гексановой фракции надземной части галофитного растения *Limonium otolensis*, произрастающего в пустынных районах Ферганской долины. Согласно результатам, в гексановой фракции было выявлено всего 74 соединения. Среди них 9 соединений составляют 92,51% от общей фракции. Наибольшее количество было зафиксировано для эйкоцилпинилового эфира угольной кислоты, n-пентакозана, n-докозана, n-нонадецана и n-гейнеикозана, с концентрациями 43,923%, 25,151%, 12,34%, 4,94% и 3,456% соответственно.

#### *Abstract*

This article presents the results of the gas chromatography-mass spectrometry analysis of the hexane fraction of the aerial parts of the halophytic plant *Limonium otolensis*, which is distributed in the desert areas of the Fergana Valley region. According to the results, a total of 74 compounds were identified in the hexane fraction. Among them, 9 compounds were found to make up 92.51% of the total fraction. The highest amounts were recorded for eicosyl vinyl carbonate, n-pentacosane, n-docosane, n-nonadecane, and n-heneicosane, with respective concentrations of 43.923%, 25.151%, 12.34%, 4.94%, and 3.456% correspondingly.

**Kalit so'zlar:** *Limonium otolensis*, gaz xromatografiya, mass-spektrometriya, n-pentakozan, n-nonadekan

**Ключевые слова:** *Limonium otolensis*, газовая хроматография, масс-спектрометрия, n-пентакозан, n-нонадецан

**Key words:** *Limonium otolensis*, gas chromatography, mass spectrometry, n-pentacosane, n-nonadecane

#### **KIRISH**


O'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganish ularning tibbiyot, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalaridagi qo'llanilish imkoniyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. O'simliklar alkaloidlar, flavonoidlar, terpenoidlar, fenollar va efir moylari kabi biologik faol birikmalarning boy manbai

hisoblanadi. Ushbu birikmalar antioksidant, antimikrob va yallig'lanishga qarshi kabi muhim terapevtik xususiyatlarga ega bo'lib, zamonaviy dori vositalarini yaratishda asos sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, noyob yoki ekstremal sharoitlarda o'suvchi, yetaricha o'rganilmagan o'simlik turlarining fitokimyoviy tarkibini o'rganish biologik faolligi yuqori bo'lgan noyob birikmalarni kashf qilish imkonini beradi. Shu sababli, o'simliklarning kimyoviy tarkibini kompleks o'rganish ularning tabiiy resurs sifatidagi to'liq salohiyatini ochib berish, ulardan barqaror foydalanishni ta'minlash va biologik xilma-xillikni saqlash uchun muhimdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

*Limonium* turkumi *Plumbaginaceae* oиласига mansub bo'lib, taxminan 600 turdag'i o'simliklarni o'z ichiga oladi. Bu o'simliklar ko'pincha dengiz lavandasiga, statitsa yoki botqoq rozmarini sifatida tanilgan. *Limonium* turkumining eng katta xilma-xilligi O'rta yer dengizi, Markaziy Osiyo va Kanar orollaridan Osiyoga qadar bo'lgan hududlarda uchraydi. Ushbu o'simliklar odatda ko'p yillik bo'lib, bo'y 10 dan 120 sm gacha yetadi va yer osti ildizpoyasidan rivojlanadi. Kanar orollarida uchraydigan ayrim turlari esa bo'y 2 metrgacha yetadigan butalar hisoblanadi. *Limonium* turlari ko'pincha sho'r va ishqorli tuproqlarda o'sadi, shuning uchun ular sohillar, sho'r botqoqliklar hamda kontinental ichki hududlardagi sho'r yoki gipsli tuproqlarda keng tarqalgan. Ushbu turkumning *Limonium otolepis* turi esa, O'rta Osiyo, G'arbiy Xitoy, Shimoliy Afg'oniston hududlarida tarqalgan bo'lib, o'ttacha 40-80 sm balandlikda o'sadi. May-sentabr oylarida gullaydi, iyun-sentabr oylarida meva beradi. O'zbekistonning Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarcand, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tarqalgan [1-3].

Rasm 1. *L. otolepis* ko'rinishi [4] va O'zbekiston hududida tarqalish xaritasasi [5]



*Limonium* turkumi vakillari kimyoviy tarkibi xilma-xil bo'lib, ular tarkibidan asosan polifenollar jumladan flavonoidlar, antosianlar, fenol kislotalar shuningdek lignanamidlar va boshqalar ajratib olinib o'rganilgan [6]. *Limonium* turkumining ko'pchilik vakillari kimyoviy tarkibi yaxshi o'rganilgan bo'lsada, ayrim turlari jumladan *L. otolepis* ni kimyoviy tarkibi deyarli kam o'rganilgan. Hozirgi kunda, *L. otolepis* uchun faqatgina lipid tarkibi, fitoekdisteroidlar ma'lum [7-8]. Shuni hisobga olgan holda, ushbu o'simlik kimyoviy tarkibi borasida izlanishlarimizni davomi sifatida, ushbu maqolada biz turning yer ustki qismi qutbsiz (geksan) fraksiyasini o'rganishni maqsad qilib oldik.

Jami 1 kg bo'lgan o'simlik namunalari 2024 yilning iyun oyida Farg'ona viloyati, Yozyovon tumani hududidan Farg'ona davlat universiteti Kimyo kafedrasiga terib keltirildi. Quyosh nurlari tushmaydigan xonada 3 kun davomida quritildi. Analiz uchun 10 gr namuna olinib, maydalananib, elakdan o'tkazildi. Yangi haydar olingan geksan va quruq massa 5:1 (hajm/massa) nisbatda aralashtirilib, xona haroratida bir kecha davomida chayqatib turildi. Ushbu jarayon 3 marta takrorlandi, olingan eritmalar birlashtirilib, quyi bosim ostida konsentrlandi va analiz uchun yuborildi.


Analiz mass-spektrometrik detektor ulangan Chromatec Crystall 5000 gaz xromatografida, uzunligi 30 m, ichki diametri 0.25 mm va qatlama qalingi 0.25 µm bo'lgan CR-5MS kapillyar kolonkada amalga oshirildi. Tashuvchi gaz sifatida vodorod qo'llanildi. Xromatograf termostat

## KIMYO

harorati har minutda  $10^{\circ}\text{C}$  ga ortib borish bilan 40 dan  $240^{\circ}\text{C}$  gacha etib belgilandi. Ion manbayi harorati  $230^{\circ}\text{C}$ . Analiz vaqtı esa 23 daqiqani tashkil qildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Geksanli fraksiya uchun olingan gaz xromatogrammadagi har bir cho'qqi uchun mos bo'lgan mass-spektrlarni Standartlar va texnologiya milliy instituti (NIST) bazasidagi [9] namunaviy spektrlarga solishtirish orqali birikmalar identifikatsiya qilindi (2-rasm va 1-jadval).



Rasm 2. *L. otolepis* yer ustki qismi geksanli fraksiyasi gaz xromatogrammasi

1-Jadval

Geksanli ekstrakt tarkibida aniqlangan asosiy birikmalar

N	Birikma nomi	Ushlanish vaqtı (Rt, min.)	Molekulyar formulasi	Miqdori (%)
1	n-Geneykozan	13.836	$\text{C}_{21}\text{H}_{44}$	3.456
2	n-Nonadekan	16.359	$\text{C}_{19}\text{H}_{40}$	4.940
3	n-Dokozan	18.979	$\text{C}_{22}\text{H}_{46}$	12.340
4	1,3-benzoydikarbon kislota bis(2-etilgeksil) efiri	19.272	$\text{C}_{24}\text{H}_{38}\text{O}$	0.448
5	1-yod-2-metilundekan	19.598	$\text{C}_{12}\text{H}_{25}\text{I}$	0.495
6	Karbonat kislota eykozil vinil efiri	20.566	$\text{C}_{23}\text{H}_{44}\text{O}_3$	43.925
7	Oksalat kislota allil geksadetsil efiri	21.175	$\text{C}_{21}\text{H}_{38}\text{O}_4$	1.272
8	n-Pentakozan	21.863	$\text{C}_{25}\text{H}_{52}$	25.151
9	2,6-dimetilgeptadekan	22.601	$\text{C}_{19}\text{H}_{40}$	0.483
	Jami			92.51 %

Yuqorida berilgan jadvalda, massa ulush qiymatlari yuqori bo'lgan jami 9 ta birikma xromatografik ma'lumotlari keltirilgan. Ularni umumiya massa ulushi 92.51% ni tashkil qiladi. Ko'rishimiz mumkinki, o'simlik geksanli fraksiyasini asosiy tarkibi to'yingan alkanlar (46.37%) va karbonat kislota eykozil vinil efiri (43.925%) dan iborat.

Boshqa *Limonium* turlari ichidan, Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan tur *L. gmelinii* geksanli fraksiyasi Qozog'istonlik olimlar tomonidan o'rjanilgan [10]. Ularga ko'ra, ushbu tur yer ustki qismidan jami 22 ta birikma aniqlangan bo'lib, ular orasidan trikozan uglevodorodini miqdori eng ko'p, 47,44% ni tashkil qilgan. Bundan tashqari, fitol atsetat (12,88%), geneykozan (7,82%) va

3,7,11,15-tetrametil-2-geksadekan-1-ol (5,17%) larni ham miqdori nisbatan ko'pligi aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu turning ildiz qismini ham geksanli fraksiyasi o'rganilgan bo'lib, jami 14 ta birikma identifikasiya qilingan. Ularning asosiy qismini yuqori karbon kislota murakkab efirlari va uglevodorodlar tashkil qilishi aniqlangan.

Ayrim *Limonium* turlarining geksanli fraksiyalarini biologik faolligi o'rganilgan. Misol uchun, *L. effusum* geksan fraksiyasi DFPG (2,2-difenil-1-piikrilgidrazil) radikalini zararsizlantrishda sezilarli faoliyk ko'rsatgan va IC<sub>50</sub> qiymati  $13,92 \pm 0,06$  mkg/ml ni tashkil etgan. Ushbu sezilarli antioksidant faoliyk faqat fenol birikmalar mavjudligi bilan bog'liq bo'limasligi, balki karotinoidlar va terpenoidlar kabi qutbsiz erituvchilarda eriydigan o'simlik metabolitlariga ham taalluqli bo'lishi mumkinligini taxmin qilish mumkin [11].

### XULOSA

Ushbu tadqiqot davomida Farg'ona vodiysining cho'llashgan, sho'r tuproqlarida o'sadigan tur *L. otolepis* geksan fraksiyasi kimyoviy tarkibi GX/MS usulida o'rganildi. Olingen natijalar ushbu fraksiya asosan to'yingan uglevodorodlar hamda karbonat kislota eykozil vinil efiridan tashkil topishi aniqlandi. O'simlik uchun olingen natijalar unga turdosh bo'lgan va bir xil mintaqada tarqalgan *L. gmelinii* ni kimyoviy tarkibidan ancha farq qilishini ko'rsatdi. Bu esa o'simlik umumiyligi kimyoviy tarkibi, biologik faolligini chuqur o'rganishni talab etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Koutroumpa, K., Theodoridis, S., Warren, B. H., et al. (2018). An expanded molecular phylogeny of Plumbaginaceae, with emphasis on *Limonium* (sea lavenders): Taxonomic implications and biogeographic considerations. *Ecology and Evolution*, 8(22), 12397–12424. <https://doi.org/10.1002/ece3.4553>
- Fedorov, A. A. (Ed.). (1985). Plant resources of the USSR. Flowering plants, their chemical composition and use, families Magnoliaceae-Limoniaceae [in Russian]. Nauka.
- Flora of Uzbekistan [in Russian], Vol. III. (2019). Tashkent, p. 33.
- Fateryga, A. (2023). Image of *Limonium otolepis* (Schrenk) Kuntze. In Plantarium. Plants and lichens of Russia and neighboring countries: open online galleries and plant identification guide. <https://www.plantarum.ru/lang/en/page/image/id/774769.html>
- Flora of Uzbekistan [in Russian], Vol. III. (2019). Tashkent, p. 164.
- Gancedo, N. C., Isolani, R., de Oliveira, N. C., Nakamura, C. V., de Medeiros Araújo, D. C., Sanches, A. C. C., Tonin, F. S., Fernandez-Llimos, F., Chierrito, D., & de Mello, J. C. P. (2023). Chemical constituents, anticancer and anti-proliferative potential of *Limonium* species: A systematic review. *Pharmaceuticals*, 16(2), 293. <https://doi.org/10.3390/ph16020293>
- Zhusupova, G. E., Artamonova, N. A., Abilov, Z. A., et al. (2006). Lipophilic pigments and fatty acids from the aerial parts of certain plant species of the genus *Limonium*. *Chemistry of Natural Compounds*, 42(5), 512–514. <https://doi.org/10.1007/s10600-006-0200-9>
- Whiting, P., Savchenko, T., Sarker, S. D., Rees, H. H., & Dinan, L. (1998). Phytoecdysteroids in the genus *Limonium* (Plumbaginaceae). *Biochemical Systematics and Ecology*, 26(7), 695–698.
- Wallace, W. E. (n.d.). Mass spectra by NIST Mass Spectrometry Data Center. <https://doi.org/10.18434/T4D303>
- Zhusupova, A. I., Iksanov, Y. S., Mamutova, A. A., & Zhusupova, G. E. (2019). Comparative analysis of the nonpolar fraction of the aerial and underground parts of the *Limonium gmelinii* plants by the GC-MS method. News of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan. Series of Chemistry and Technology Sciences, 2, 55–60. Retrieved from <https://journals.nauka-nanrk.kz/chemistry-technology/article/view/1286>
- Baysal, I., Ekizoglu, M., Ertas, A., Temiz, B., Agalar, H. G., Yabanoglu-Ciftci, S., Temel, H., Ucar, G., & Turkmenoglu, F. P. (2021). Identification of phenolic compounds by LC-MS/MS and evaluation of bioactive properties of two edible halophytes: *Limonium effusum* and *L. sinuatum*. *Molecules*, 26(13), 4040. <https://doi.org/10.3390/molecules26134040>